

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT-KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**YOQILG‘I ISHLAB CHIQUARISH VA ORGANIK BIRIKMALAR
TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

**NEFT-GAZNI QAYTA ISHLASH KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI
KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
kafedra mudiri
k.f.n. O.E.Ziyadullaev.

«___»_____2013 y

Talabaning bitiruv ishiga

Topshiriq

Islomov Alisher Nurillayevich

(talabaning ismi sharifi)

Bitiruv ishining mavzusi **Tabiiy gazni asosiy komponenti metanni demitanizatorida ajratish iste’molchiga yuborish texnologiyasini loyixalash. yillik quvvati 6.5 mlrd m³**

Institut buyrug‘i asosida tasdiqlandi «___» _____ 2013 y., №_____

2. Bitiruv ishining topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishini bajarish uchun olingan dastlabki
ma’lumotlar _____

4. Loyihada yechiladigan masalalar _____

5. Chiziladigan materiallar ro‘yxati _____

6. Topshiriq berilgan muddat _____
Bitiruv ishi rahbari _____

(imzo)

Topshiriq, bajarish uchun qabul qilindi _____

(imzo)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI
KAFEDRASI**

HISOB-TUSHUNTIRISH AXBOROTI

Bitiruv ishi mavzusi **Tabiiy gazni asosiy komponenti metanni demitanizatorida ajratish iste’molchiga yuborish texnologiyasini loyixalash. Yillik quvvati 6.5 mlrd m³**

Kafedra mudiri _____ k.f.n. O.E.Ziyadullaev.

Rahbar Mirzayev B.

Maslaxatchilar:

Texnologik qism _____

Iqtisodiyot _____

O‘lchash asboblari va
avtomatlashtirish _____

Mexnat muhofazasi _____

Fuqaro muhofazasi _____

Atrof-muxit
muhofazasi _____

Taqrizchi _____

Bitiruv ishini bajaruvchi _____

Toshkent – 2013

MUNDARIJA

Saxifa beti

1. KIRISH	
2. TEXNIK-IQTISODIY ASOSLASH	
3. XOM-ASHYO, MODDALAR VA TAYYOR MAHSULOT TAVSIFI	
4. TEXNOLOGIK JARAYON TAVSIFI	
5. ASOSIY QURILMANING TEXNOLOGIK HISOBI.....	
6. O'LCHASH ASBOBLARI VA AVTOMATLASHTIRISH	
7. ATROF MUXIT MUXOFAZASI	
8. FUQARO MUHOFAZASI	
9. MEHNAT MUHOFAZASI	
10. IQTISODIYOT BO'LIMI.....	
11. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	
12. BITIRUV ISHINING QISQACHA MAZMUNI.....	

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida tabiiy energiya manbalaridan tabiiy gaz, neft, toshko'mir hisoblanadi. Ulardan olinayotgan maxsulotlarkatta ahamiyatga egadir. Bunday maxsulotlarga benzin, kerosin, dizel yoqig'si, mazut, tabiiy gazdan – metan, etan, propan... Bu gazlardan o'z navbatida turli xil polimer maxsulotlar sintez qilinadi. Shuningdek neftdan maxsus surkov moylari ham ishlab chiqariladi. Qayta ishlash jarayonlarida olingan mahsulotlar, xalq xo'jaligi uchun zarur mahsulot ishlab chiqariladi va xom-ashyo sifatida foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarishning asosiy sohalaridan hisoblangan neft va gaz sanoatiga katta etibor qaratildi. Bu borada I.A.KARIMOVning 1992-yildagi neft va gaz sohasining rivojlantirish to'g'ri aniqlab olindi. Respublika yoqilg'i-energetik mustaqillikka erishish maqsada mavjud ishlab turgan zavodlar qatoriga yangi zavodlar qurildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishguncha neft va gazni qayta ishlash zavodlari Oltiariq, Farg'ona, Muborak gazni qayta ishlash zavodlari qatoriga 1992-yil 22-avgustda ishga tushirilgan Buxoro neft va gazokondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan zavod va 2001-yilda Sho'rtan gaz majmuasi ochildi. Umuman O'zbekistondagi neft va gazni qayta ishlash sohasini vujudga kelishiga nazar solsak XIX-asrga kelibysid Farg'ona vodiysida ochilgan dastlabki konlar asosida 1904-1906-yillarda O'zbekistonda 1-Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi asosan neftni birlamchi qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, hozirgi kunda ishlab chiqarish quvvati 1,5 mln tonnani tashkil etadi.

Respublikamizda neftni qayta ishlash bilan birgalikda gazni qayta ishlash sohasiga ham katta e'tibor berildi. 1971-yilda Muborak gazni qayta ishlash zavodi 1-ishga tushirildi. Zavod asosan xalq xo'jaligi uchun eng arzon yoqilg'i-tabiiy gazni yetkazib beradi. Muborak gazni qayta ishlash zavodining dastlabki quvvati yiliga 5mlrd m³ tabiiy gazni qayta ishlagan, 1978-80-yillarda zavodning 2-va 3-

navbati ishga tushirilib, quvvati yiliga 10mlrd m³ni tashkil etadi. 1984-yil 4-navbati ishga tushirildi. Uning umumiy quvvati 25mlrd m³ni tashkil etdi. Hozirda 30mlrd m³ni tashkil etadi.

Respublikamizda neft kimyosi va organik sintez moddalar olishni ko'paytirish maqsadida 17-fevral 1998-yil „O'zbekneftgaz“ va „ABB LUMMUS GLOBAL“ VA boshqa kompaniyalar o'rtasida gaz kimyo majmuasi loyihalash qurilmasini yetkazish, o'rnatish, ishga tushirish bo'yicha shartnoma imzolandi. 2002-yil oxirida Shortan gaz kimyo majmuasi ishga tushirildi.

TEXNIK - IQTISODIY ASOSLAR

Sho'rtan gaz kimyo majmuasi 2001-yil ishga tushirilgan. Bu majmua tabiiy gazni oltingugurtli birikmalardan adsorbentlar yordamida tozalovchi, tabiiy sovutib, quyi temperaturada suv va gaz kondensati tomchilaridan tozalovchi gazni metan, etan, propan va butan fraksiyalarga ajratuvchi, etan fraksiyasini piroliz qurilmasiga berilib, asosan etilen oluvchi, etilendan polietilen mahsulotlarini oluvchi qurilmalar ishga tushirilgan.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasiga yiliga 125 ming tonna polietilen ishlab chiqilmoqda. Shundan 50 - 60% polietilen xalqqa sotilmoqda. Hozirgi kunda zavod 90% quvvat bilan ishlamoqda. Zavodda 2500 kishi ish bilan ta'minlangan.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasi 3 ta katta qismdan iboratdir:

- Etilen ishlab chiqarish sexi;
- Polietilen ishlab chiqarish sexi;
- Energiyaresurs ustanovkalari.

Etilen sexining o'zi bir necha zonaga bo'linadi, ya'ni issiq va sovuq bo'limlarda iborat. Agar issiq bo'limi yiliga 1000 soat ishlasa, uni etilen olish quvvati yiliga 14000 tonnani tashkil etadi.

Etilen uskunali bo'limning vazifasi etan xom ashyosini termik ajratish uskunasiidan o'tkazadi. Bu yerdan siqib haydalgan va quritilgan gaz ya'ni piroliz keyingi fraksiyaga ajratish uchun etilen uskunasiini sovuq bo'limga beriladi. Ushbu ob'yekt 2002-yilda ishga tushirilgan.

Etilen uskunasiini isitish bo'limi 100-zonasini quyidagi texnologik mintaqalarga ajratish mumkin:

- To'yingan xom ashyolar;
- Etan pirolizi
- Pirogaz toblanishi;
- Qizdirilgan suvni dispers moyi.

Etilen uskunasini bosh loyihasi ABB Lummus Global (AQSh) firmasi tomonidan loyihalashtirilgan. Hozirgi kunda yer ostidan olinayotgan tabiiy gaz konlarda qayta ishlanib, ularni tovar gaz holiga keltiriladi. Shu bilan birga undan etan, propan, butan, izobutan gazlari, oltingugurt, gazkondensat, hatto motor yoqilg'ilari chiqariladi. Yurtimizning yer osti konlaridan olinayotgan gaz, gazlarning 70% ga yaqini elektroenergiyasini ishlab chiqarish uchun yonilg'i sifatida ishlatiladi.

Yer ostidan gaz bosim ostida chiqadi va tashqariga chiqqandan keyin bosim pasayadi. Buning natijasida gazning tarkibidagi suyuq holdagi qismi ajratib chiqariladi. Yer ostidan chiqqan bu suyuq gaz – gaz kondensati deyiladi. Kondensatdan tozalangan gazni tarkibida yana bir muncha chiqindilar bo'ladi.

Tabiiy gaz odatda uzoq masofalarga trubalar orqali uzatiladi. Gaz yiliga iqlim sharoiti har xil bo'lganligi sababli gazni tarkibidagi suvdan tozalash katta ahamiyatga ega. Gaz tarkibidagi namlik suyuq uglevodorodlar va boshqa chiqindilar gaz trubalarini ish samaradorligini kamaytiradi.

Kompressorlarni ishdan chiqaradi va tekshirish moslamalarini trubalarida tiqilib qoladi. Bular texnologiya qurilmalarini ishini murakkablashtiradi. Bular texnologiya qurilmalarini ishini murakkablashtiradi. Shu sababli tovar gaziga quyidagi talablar qo'yiladi:

Mexanik chiqindilar 100 m^3 gaz tarkibida 0,1 grammdan, vodorod sulfid gazi 0,2 grammdan oshmasligi shart.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasi haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, ushbu majmua Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumaniga Qarshi shahridan 40 km uzoqlikda janubiy g'arbida joylashgan.

Zavodning texnologik ob'yektlari 150 gektar joyida joylashgan, shimoldan 20 km uzoqlikda 240000 tonna mazut omborxonasi bo'lgan.

Tolimarjon GES si joylashgan shimoliy qismida 2 km uzoqlikda neft-gaz korxonasi joylashgan. Sho'rtan gaz kimyo majmuasida temir yo'l, avto transport, magistral quvurlar keltirilgan. Elektr manbai bilan Tolimarjon GES ta'minlab

beradi. Korxonaga ishchi kuchi Sho'rtan, G'uzor, Qarshi, Koson va boshqa rayonlardan kelib ishlaydi. Zavod ishchilari uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Uzoqdan kelib ishlovchilarga yotoqxonalar mavjud. Ba'zi oilaviy bo'lgan ishchilarni majmua uy-joy bilan ham ta'minlaydi. Zavod o'zini ishchilarini vaqtida oylik, qo'shimcha maosh, hamda qulay ishlashlari uchun ust-bosh, kiyim-kechaklar bilan vaqtida ta'minlab turadi. Majmuani ishchilarning farzandlari uchun yozgi ta'tilda maza qilib dam olishlari uchun zamonaviy, har tomonlama qulay oromgohlari ham mavjud.

Kimyo majmuasi uchun injener-texnik xodimlarni Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti va Qarshi Davlat Texnika Universiteti tayyorlab beradi. Zavod yosh, yetuk xodimlari uchun chet davlatlarda malaka oshirishlari hamda ushbu davlatning texnologiyasini o'rganib, o'zimizda joriy etishlari uchun bir qancha imkoniyatlar yaratib qo'ygan.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasining shimoliy-sharqida Qarshi kanalidan kelayotgan suv hisobiga 11,3 mln m³ sig'imga ega sun'iy ombori, 1700 metr uzoqlikda shaharcha joylashgan. Sho'rtan gaz kimyo majmuasining polietilenga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradi.

XOM – ASHYO, MODDALAR VA TAYYOR MAHSULOT

TAVSIFI

№	Xom ashyo, reagentlar, katalizatorlar yarim mahsulotlar, tayyorlanadigan mahsulotlarining nomi	Davlat yoki tarmoq standarti, texnik shartlar, korxona standartining tartib raqami	Tekshirilishi shart bo'lgan sifat ko'rsatkichlari	Me'yor (davlat, tarmoq, korxona standarti, texnik shartlar bo'yicha)	Tayyorlanadigan Mahsulotning qo'llanish sohasi
---	--	--	---	--	--

1	2	3	4	5	6
Tabiiy gazni amin yordamida tozalash					
1.Boshlang’ich xom ashyo					
1.1.	Tabiiy gaz	Labora toriyaga kirish nazorati	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Korxonaning xom ashyosi
			CO ₂	3,36	
			H ₂ S	0,06	
			SN ₄	88,74	
			S ₂ N ₆	4,08	
			S ₃ N ₈	0,89	
			S ₄ H ₁₀	0,41	
			S ₅ Uglevodo r rodleri	0,17	
			S ₆ va yuqori uglevodo rodlar	0,3	
			N ₂	0,76	
H ₂ O	1,23				
2. Mahsulotlar					
2.1.	Tozalan gan tabiiy gaz	Labora toriyaga kirish nazorati	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Gazlarni ajratish qurilmasi uchun xom ashyo
			CO ₂	0,005	

1	2	3	4	5	6
			H ₂ S	0,00	
			SN ₄	92,62	
			S ₂ N ₆	4,26	
			S ₃ N ₈	0,93	
	Tozalangan tabiiy gaz	Labora- toriyaga nazorati	S ₄ H ₁₀	0,43	Gazlarni ajratish qurilmasi uchun xom ashyo
			S ₅ Uglevodo rodleri	0,18	
			S ₆ va yuqori uglevodo rodlar	0,31	
			N ₂	0,79	
			H ₂ O	0,47	
2.2.	Nordon (kislotali) gaz	Labora- toriyaga nazorati	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Oltinugut olish qurilmasi uchun xom ashyo
			CO ₂	88,10	
			H ₂ S	1,55	
			H ₂ O	10,35	
2.3.	GA- 1702, 1702S Nasoslar dan oqova suvlar kollektor iga tashlana digan nordon suv	Laborato riyaga nazorati	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Tozalash va neytrallash
			H ₂ O, kamida	99,95	
			SO ₂ , ko’pi bilan	0,04	
			H ₂ S, ko’pi bilan	0,01	
3. Reagentlar					
3.1.	Massa ulushi 85% bo’lgan dietanola min yoki ekvivalente nti	Yakuniy loyiha Hujjatla ari, 2 tom, 291 bet	Tashqi ko’rinishi	Aralash ma- lariz tiniq suyuqlik	H ₂ S va SO ₂ ni absorbsiya qilish
			DEA (C ₄ H ₁₁ O ₂ N),	85	

1	2	3	4	5	6
			massa ulushi, %, kamida		
			Zichligi, 20 ⁰ S da, g/sm ³	1,1	
			Kristallanish temperaturasi, ⁰ S, kamida	25,7	
3.2.	ES-3005A Nalco/Exxon Energy Chemicals korroziya ingibitori yoki 1376A Ekvivalenti	Yakuniy loyiha hujjatlari, 2tom, 305bet	Tashqi ko'rinishi	Rangsiz suyuqlik	Korroziya jarayonini susaytirish uchun
			Zichligi, 16 ⁰ S da, g/sm ³	1,02-1,03	
			Qotish Temperaturasi, ⁰ S	Minus 2	
			Qovushqoqligi, 16 ⁰ S da, sR	3	
			To'yingan bug' bosimi		
			20 ⁰ S da, mm Hg	12	
3.3.	Ko'piklanishga qarshi qo'shimcha Nalco Exxon Energy Chemicals EC 9055A yoki ekvivalenti	Yakuniy loyiha hujjatlari, 2tom, 312bet	Tarkibi	Poligli kollar va yog' kislotalari efirlarining aralashmasi	DEA eritmasinin ko'piklanishini pasaytirish uchun
			Tashqi ko'rinishi	Och sariq rangli emulsiya	
			Zichligi, 16 ⁰ S da, g/sm ³	1,0	

1	2	3	4	5	6
			Qotish Temperat tuurasi, °S	Minus 9	
			Qovushq oqligi, 16°S da, sR	573	
4. Yordamchi materiallar					
4.1	Granulal Angan Aktivlan gan ko'mir SGL 8 x 30 yoki Ekviva lent i	Ishlab Chiqa Ruvchi ning pasporti	Turi	Granul alangan	DEA eritmasini tozalash uchun adsorbent
			Kulliligi, %, ko'pi bilan	10	
			Namligi, %, ko'pi bilan	2	
			Yod soni, mg/g, kamida	900	
			Yiyilish soni, kamida	75	
			Boshlan g'ich zichligi, g/sm ³	0,510	
			Granulal arning diametri, mm	1,5-1,7	
			G'ovakli lik, sm ³ /kg	0,85	
			Solishtir ma yuzasi, m ² /g	950-1050	
			Solishtir ma issiqlik sig'imi, kkal/kg.°S	0,25	
4.2	XN-30 markali granulal	Texnik tasnifi	V.E.T. bo'yicha	> - 885	DEA eritmasini tozalash

1	2	3	4	5	6
	angan aktivlan gan ko'mir		solishtir ma yuzasi, m ² /g		uchun adsorbent
			Yod soni, mg/g	> -950	
			Taxmini zichligi g/dm ³	> -520	
			Namlik %	> -5	
			Kullilik %	> -5	
			Vodorod ko'rsatki chi (rN)	6-8	
			Yiyilishga Chidamli lik, %	> -96.6	
			Yiyilish, %	> -85	
			Diametri , mm	3,0 + - 0,02	
			Turi	Granul alangan	
4.3.	Moylash moyi	JIS K 2213 SLASS -2-ISO- VG 32 standarti	Kinematik Qovushq oqlik, 40°S da , sSt	28,8-35,2	Markazdan qochma va me'yorlovchi nasoslar uchun moylash yog'i
			Qovushq oqlik indeksi, Vi, kamida	95	
			O't olish Tempera urasi, °S, Kamida	190	
			Qotish Temperat urasi, °S, ko'pi bilan	Minus 10	
			Umumiy kislotalik	0,3	

1	2	3	4	5	6
			soni, mg KON/g ko'pi bilan		
			1000 h dan keyin umumiy kislotalik soni mg KON/g ko'pi bilan	1,0	
			Mis plastina usuli bilan korroziy sinovlari 100°Sx3 h, ko'pi bilan	1	
4.4.	“A” markali dietileng likol,	Yakuniy loyiha hujjatlari, 2tom, 417 bet	Zichligi, 20 ⁰ S da, g/sm ³	1,116-1,117	Markazdan qochma nasoslarning zichlagichlarini sovutish uchun suyuqlik
			Xazen Birligining rangdorligi, ko'pi bilan	10	
			Organik Aralash malar ning massa ulushi, %, ko'pi bilan	0,4	
			Etilengli golning massa ulushi, %, ko'pi bilan	0,15	
			Dietileng ligol	99,5	

1	2	3	4	5	6
			ning massa ulushi, %, kamida		
			Suvning massa ulushi, %, ko'pi bilan	0,05	
			Sirka kislotalar qayta hisobla ganda kislotalar ning massa ulushi, %, ko'pi bilan	0,005	
			Sovun lanish soni, mg KON/g mahsulotga, ko'pi bilan	0,1	
			101,3 kPa, bosimda haydalisht boshlanish temperaturasi, kamida	244	
			101,3 kPa ,bosimda Haydalis hni tugash teperaturasi, ko'pi bilan	249	
4.5.	EA- 1131 dan kondensat	Yakuniy loyiha hujjatlari	Vodorod ko'rsatki chi (rN)	9,5	Tabiiy gazni suv bilan yuvish va

1	2	3	4	5	6
			Kislorod ga (O ₂) bo'lgan biologik ehtiyoj, mg/dm ³	5	DEA eritmasini tayyorlash
			Kislorod ga (O ₂) bo'lgan kimyovi ehtiyoj, mg/dm ³	15	
			Erimagan qattiq Moddala rning massaviy konsentr atsiyasi, mg/dm ³ , ko'pi bilan	50	
			Muallaq holatda gi qattiq moddala rning massaviy konsentr atsiyasi, mg/dm ³ , ko'pi bilan	20	
Tabiiy gazni quritish va ajratish					
5. Boshlang'ich xom ashyo					
5.1.	Tozalan gan tabiiy gaz	Labora toriya nazorati	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Gaz ajratish qurilmasi uchun xom ashyo
			CO ₂	0,00	
			H ₂ S	0,00	
			SN ₄	92,62	
			S ₂ N ₆	4,26	
			S ₃ N ₈	0,93	
			S ₄ H ₁₀	0,43	
			S ₅ Uglevodo rodlar	0,18	
S ₆ va	0.31				

1	2	3	4	5	6
			yuqori uglevodo rodlar		
			N ₂	0,79	
			H ₂ O	0,47	
5.2. Mahsulotlar					
5.3.	Tovar gaz	Material balans	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Yoqilg'I gaz
			N ₂	1,79	
			SO ₂	0,00	
			CH ₄	98,04	
			S ₂ H ₆	0,17	
5.4.	Etan mahsuloti	Material balans	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Piroliz pechlari uchun xom ashyo
			SO ₂	0,01	
			SN ₄	0,54	
			S ₂ N ₆	98,88	
			S ₃ N ₈	0,56	
5.5.	Propan mahsuloti	Material balans	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Suyultirilg an gaz
			S ₂ N ₆	0,34	
			S ₃ N ₈	99,33	
			S ₄ Uglevodo rodlar	0,33	
5.6	Butan mahsuloti	Material balans	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Suyultirilg An maishiy gaz
			S ₃ N ₈	0,74	
			S ₄ Uglevodo rodlar	97,95	
			S ₅ va yuqori uglevodo rodlar	1,31	
5.7	S ₅ va yuqori uglevod orodlar	Material balans	Tarkibi, molyar ulushlar, %		Neftni qayta ishlash korxonalari

1	2	3	4	5	6
			S ₄ Uglevodo rodlar	0,98	uchun xom ashyo
			S ₅ Uglevodo rodlar	45,81	
			S ₆ –S ₈ Uglevodo rodlar	53,21	
6. Reagentlar					
6.1	Texnik metanol	TU 6.1.- 002384 9- 80:2002	1.Tashqi ko’rinishi	Rangsi z tiniq suyuqlik	Kristall gidratlar hosil bo’lishini oldini olish va ularni parchalash uchun
			2. Zichligi, 20 ⁰ S da, g/sm ³	0,791- 0,792	
			3.suv ning massa ulushi, %, ko’pi bilan	0,08	
			4.Erkin Kislotala ning massa ulushi, chumoli kislotaga qayta hisoblag anda %, ko’pi bilan	0,0015	
			5.Aldegi d va ketonlar ning massa ulushi, atsetong a qayta hisoblagan da, %, ko’pi	0,008	

1	2	3	4	5	6
			bilan		
7.Yordamchi materiallar					
7.1	ZEOCH EM Kompani yasining Z4-01 sintetik siolitlari yoki ekvivalen ti	Yakuni y loyiha hujjat lari, 2tom, 463 bet	1.Tashqi ko'rinishi	Granulalar Yoki briketlar ko'rini shidagi och sariqdan to'q sariq rangga cha bo'lgan qattiq modda	Tabiiy gazni quritish
			2.Kompa nent tarkibi	Na ₂ O/A I ₂ O ₃ / SiO ₂ /N ₂ O	
			3.To'kil gan zichligi, kg/m ³	680	
			4.G'ova klar o'lchami , Å	4	
			5.Erish Tempirat urasi, °S, kamida	1600	
7.2 a)	Molsiv Adsorbe nts Kompan iyasinin g 4 A 1/8 turdagi UOP Molekul yar tutib qoluvchi	Tahlil Sertifik ati	Mustahk amligi, kg	9,921	Tabiiy gazni quritish yuqori qatlamga joylanadi
			Zichligi kg/m ³	697,16	
			Suv bo'yicha Muvoza natdagi miqdori (mass.%) , 17,5 mm Hg	23,376	

1	2	3	4	5	6
			va 25 ⁰ S da		
			Qizdirish da gi yo'qotishlar, (mass.%)	0,202	
7.2 b)	Molsiv Adsorbents kompaniya sining 4 A 1/16 DG Turdagi UOP Molekul yar tutib qoluvchi	Tahlil sertifikat	Mustahkamligi, kg	3,45	Tabiiy gazni quritish quyi qatlamga joylanadi
			Zichligi kg/m ³	690,49	
			Suv bo'yicha muvozan dagi miqdori (mass.%), 17,5 mm Hg va 25 ⁰ S da	23	
			Qizdirish dagi yo'qotishlar, (mass.%)	0,27	
7.3.	Tayanch shartlari	Yakuniy loyiha hujjatlari, 2tom	1.Yuqori qatlam	½	Oqimning Taqsimlanishi, seolitning olib ketilishining oldini olish
			2.O'rta qatlam	1/8	
7.4.	Past Bosimda gi bug' kondensati	Yakuniy loyiha hujjatlari, 1 tom, 48 bet	Massa ulushi, % :		Bug' hosil qilish uchun
			1.H ₂ O, kamida	99,88	
			2.SO ₂ , ko'pi bilan	0,11	
			3.DEA (C ₄ H ₁₁ O ₂)	10	

1	2	3	4	5	6
			N), rrm, ko'pi bilan		
			4.H ₂ S, ko'pi bilan	0,01	
7.5.	NO'A (KIP) havosi	Yakuniy loyiha Hujjatl ri, 1 tom , 31 bet	Chang, moylar, yog'lar	Bo'lma sligi kerak	Nazorat va avtomatika asboblari
			Tomchi hosil qilish nuqtasi temperat urasi, °S, ko'pi bilan	minus 40	
7.6.	Azot	Yakuniy loyiha hujjatlari, 1 tom , 32 bet	1.N ₂ , hajmiy ulushi, %, kamida	98,5	Tizimni inert gaz bilan tozalash
			2.H ₂ O, rrm, ko'pi bilan	100	
			3.O ₂ va inert gazlar	izlari	
			4. Tomchi hosil qilish nuqtasi temperat urasi, °S, ko'pi bilan	Minus 60	
7.7.	Moylash moyi	ISO VG-46 turdagi	Kinemat Qovushq oqlik, 40°S da, mm ² /s	42-50	Gaz trubinasi va tabiiy gazni siqish kompresori
			Qovushqoqlik indeksi, kamida	70	

1	2	3	4	5	6
			Zichligik g/m ³ , ko'pi bilan	900	podshipniklari ni moylash uchun
			Ochiq tigelda chaqnash temperat urasi, °S, kamida	200	
			Qotish Tempera urasi, °S, ko'pi bilan	Minus 6	
			Kislotali k soni, mg KON/g, ko'pi bilan	0,05	
			Emulsiy alanishi, min, ko'pi bilan	30	
			Havoning 0.2%gac ha ajralib chiqishi, min, ko'pi bilan	6	
			Ko'pik hosil bo'lishi, 50°S da, sm ³ , ko'pi bilan	200	
			1 min Tindirilg ndan keyin ko'pikni ng qoldig'i,	10	

1	2	3	4	5	6
			sm ³ , ko'pi bilan		
			Oksidlan ishga bardoshli gi, h, kamida	2000	
			Mexanik Aralash malar miqdori	Bo'lma sligi kerak	
			Suvning miqdori	Bo'lma sligi kerak	
7.8.	Minerals izlan tirilgan suv	Yakuniy loyiha hujjatlari	Tempera tulasi, °S: kamida	10	Amin filtrining kompresso ri va turbanani yuvish uchun
			ko'pi bilan	60	
			O'tkazuv chanlik , μΩ/sm, ko'pi bilan	0,2	
			Na+K tuzlari	Bo'lma sligi kerak	
			Mis (Su)	Bo'lma sligi kerak	
			Vodorod ko'rsatki chi (rN)	8-9,5	
			Kremniy Dioksidi ing (SiO ₂) massa ulushi, rrm, ko'pi bilan	0,02	
			Temirnin g (Fe),	0,02	

1	2	3	4	5	6
			massa ulushi, rrm, ko'pi bilan		
			Erigan qattiq zarrachal ar va moddalar miqdorining umumiy massa ulushi, rrm, ko'pi bilan	0,1	

TEXNOLOGIK JARAYON TAVSIFI

Tozalangan tabiiy gaz quritilgandan keyin qattiq sovutish bo'limiga yuboriladi. Tabiiy gazni sovutish va qisman kondensatlash yo'li bilan metanni ajratib olish bloki uchun xom ashyo tayyorlash mazkur bo'limning vazifasi hisoblanadi. Sovutish teskari oqim issiqlik almashgichlari (sovutish kamerasi) va propan sovutish agenti sovutgichlari hisobiga amalga oshiriladi.

EA-1803 propan sovutish agenti sovutgichi, RA-1801 sovutish kamerasi, demetanizatorni ta'minlovchi FA-1802 separator bo'limning asosiy uskunalari hisoblanadi.

Tabiiy gaz qattiq sovutish bo'limidan ikki oqimda metanni ajratib olish blokiga yuboriladi. Metanni ajratib olish blokida metan etandan va undan og'irroq komponentlardan ajratib olinadi. Bunda tabiiy gaz tarkibidagi 95 % etanni demetanizatorning kub mahsuloti bilan birga ajratib olish ta'minlanadi. Ajratib olingan metan GB-1801 kompressor bilan siqilgandan keyin, tovar gaz sifatida, magistral gaz quvurlari tizimiga yuboriladi.

DA-1801 demetanizator, EA-1807 uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot kondensatori, FA-1803 "ho'llash" suyuqligi sig'imi, GA-1801, S "ho'llash" suyuqligi nasoslari, EA-1806 yon tomondagi reboylar va EA-1808 kub reboylari blokning asosiy uskunalari hisoblanadi.

Demetanizatorning kub oqimi etan xom ashyosini ajratib olish blokiga yuboriladi. Mazkur blokda etan og'irroq uglevodorodlar (propan, butan va C_5 dan yuqori) dan ajratiladi. Ajratib olingan etan etilen olish qurilmasining piroliz pechlari uchun xom ashyo hisoblanadi.

DA-1802 deetanizator, EA-1810 uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot kondensatori, FA-1804 "ho'llash" suyuqligi sig'imi, GA-1802 S "ho'llash" suyuqligi nasoslari, EA-1811 kub reboylari va EA-1820 etan xom ashyosining bug'latgichi blokning asosiy uskunalari hisoblanadi. Deetanizatorning kubidagi mahsulot C_3 dan yuqori propanni ajratib olish blokiga yuboriladi.

Mazkur blok deetanizatorning kubi mahsulotini propan (uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot) va C_4 + yuqori uglevodorodlar aralashmasiga ajratish uchun xizmat qiladi. Propan - butan fraksiyasi bilan aralashtirilgandan keyin, tovar mahsulot sifatida tovar parkiga saqlash va iste'molchilarga jo'natish uchun yuboriladi.

DA-1803 depropanizator, EA-1812 uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot kondensatori, FA-1805 "ho'llash" suyuqligi sig'imi, GA-1803, S "ho'llash" suyuqligi nasoslari, EA-1813 kub reboylari blokning asosiy uskunalari hisoblanadi.

C_4 + yuqori uglevodorodlar aralashmasi depropanizatoridan butanni ajratib olish blokiga yuboriladi. Mazkur blok depropanizatorning kubi mahsulotini butan (uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot) va C_5 + yuqori uglevodorodlar aralashmasiga ajratish uchun xizmat qiladi. Butan - propan fraksiyasi bilan aralashtirilgandan keyin, tovar mahsulot sifatida tovar parkiga saqlash va iste'molchilarga jo'natish uchun yuboriladi. Gaz kondensati (C_5 + yuqori fraksiya) tovar mahsulot sifatida tovar parkiga saqlash va iste'molchilarga jo'natish uchun yuboriladi.

DA-1804 debutanizator, EA-1814 uskunaning yuqori qismidan olinadigan mahsulot kondensatori, FA-1806 "ho'llash" suyuqligi sig'imi, GA-1804, S "ho'llash" suyuqligi nasoslari, EA-1815 kub reboylari blokning asosiy uskunalari hisoblanadi.

Demetanizatsiya

Demetanizator fraksiyaga ajratuvchi qurilma bo'lib, u 38 ta klapanli tarelkadan iboratdir. Kolonnaning DA-1801 yuqorigi qismidan asosan metan ajralib chiqadi va tarkibida 0.17% gacha etan bo'ladi. Pastki qismida esa etan, propan, butan va pentandan oktangacha bo'lgan uglevodorodlar bo'ladi. Oz miqdorda ya'ni 0.29% metan ham bo'ladi. Yuqori qism 24"P18100B21L-R trubada temperatura -94°C bo'ladi. Trubali sovutgich EA- 1807 da -95°C gacha sovutiladi. Etilenli sovutgichlar yordamida -101°C da sovutish mumkin. 20"P18101-B212R

truboprovod orqali separatorga quyiladi. Separator FA-1803 dagi suyuq va par faza asosan metandan iborat. Suyuqlik sig'imini LC-18003 nazorat qiladi. Separatorni pastki qismidan 12"P21L-R truba orqali chiqadi va nasos yordamida 10"P18100-B212R liniyaga uzatiladi. Bu liniya orqali kolonnaning 1 - tarelkasiga quyiladi, bunda bosim 3050 kPa, temperatura -95°C va sarf 105800km/soatga teng bo'ladi.

FA-1803 separatorini yuqori qismidan chiqayotgan suyuq metan - etilen olish qurilmasiga sovituvchi agent sifatida beriladi.

Pastki qismidan chiqayotgan kub qoldiq esa nasos orqali etanizator FA-1802 kolonnasiga beriladi.

Demetanizatorni (DA-1802) o'rtacha ishlash parametrlari:

Yuqorigi qismida bosim	-	3045 KPa;
Pastki qismidagi bosim	-	3074 KPa;
Kompressordagi bosim	-	29.95 KPa;
Kirishdagi bosim	-	2692 KPa;
Yuqorigi qismida temperatura	-	94°C;
Flegma temperaturasi	-	95°C;
Yuqori uzatmadagi temperatura	-	82°C;
Pastki uzatmadagi temperatura	-	47°C;
Reboylarga kirishdagi temperatura	-	81°C;
Reboylarga chiqishdagi temperatura	-	63°C.

Metanning azot va etan bilan aralashmalaridan iborat bo'lgan kolonnaning yuqori qismidan olinadigan mahsulotlar minus 93 – 94°C temperaturada EA-1807 kondensator (demetanizatorning yuqorisidan olinadigan mahsulot kondensatori) ning quvurlar hududiga beriladi. Demetanizatorning yuqori qismidan chiqayotgan metan fraksiyasining temperaturasi TI – 18017 termopara bilan nazorat qilinadi.

EA – 1807 kondensator gorizontal, bir yo'lli, qattiq mahkamlangan quvur panjarali, g'ilof quvurli issiqlik almashtirgichdir. Kondensatorda metan fraksiyasining minus 101°C izotermali etilen sovutish agenti bilan issiqlik almashishi hisobiga sovutish va kondensatlanishi amalga oshadi. Kondensatordan

chiqqan minus 94 - 95°C temperaturadagi ikki fazali oqim , fazalarga ajratish uchun FA-1803 flegma sig'imi (separator) ga yuboriladi.

FA – separator zanglamaydigan po'latdan yasalgan, maksimal 89 m³ hajmiga ega bo'lgan, vertikal silindrik apparatdir. Separatorning yuqori qismiga suyuqlik tomchilarini metan fraksiyasi oqimi bilan ketishini oldini olish uchun koagulyator o'rnatilgan.

Separatorda gravitatsiya kuchlari ta'siri ostida kondensatlangan metan (suyuqlik) gaz fazasidan ajraladi.

Separatordagi suyuqlik sathi yuqori "H" va quyi "L" qiymatlarda signalizatsiya bilan , LC – 18003 tartiblagich yordamida, EA – 1807 kondensatorga berilayotgan sovutish agentining hajmini o'zgartirish yo'li bilan tartibga solinadi. Separatordagi suyuqlik sathi, joyida o'rnatilgan LG – 18057 A/B/C sath o'lchagich bilan o'lchanadi.

Sathning maksimal darajada sig'imdagi kondensatlangan metanning hajmi 43.6 m³ ni tashkil etadi.

Separatordagi bosim joyida o'rnatilgan PG – 18062 monometr bilan o'lchanadi.

Nam gaz o'tib ketgan yoki uzoq vaqt davomida namlik yig'ilgan vaziyatlarda gidratlarning hosil bo'lishini oldini olish uchun, FA – 1803 separatorning kub mahsuloti oqimiga metanol berish mumkin. Konsentrlangan metanol minus 98 °C temperaturada muzlashini yodda tutish lozim.

Deetanizatsiya jarayoni

Deetanizatsiya DA – 1802 deetanizatsiyani pastki qismidan chiqayotgan kub qoldiqni ichki qismga ajratadi. Deetanizator 51 ta klapanli tarelkadan iborat bo'lib, uning yuqorigi qismidan etan ajralib chiqadi. Uning miqdori 0.56% ni tashkil etadi. Pastki qismidan esa C₆ dan C₈ gacha bo'lgan moddalar va oz miqdorda etan chiqadi. Bunda etan miqdori esa 016% ni taskil qiladi. Yuqori qismidan chiqayotgan mahsulot piroliz pechi qurilmasiga beriladi, bunda 750 -

1200°C gacha qizdirib etilen olinadi. Deetanizatoridan chiqayotgan suyuq kub qoldiq depropanizatorga beriladi va fraksiyalarga ajratiladi.

Deetanizatoridan chiqayotgan kub qoldiq deetanizatorni nazorat qurilmasidan o'tib, 4''P18117 – B1A trubasiga beriladi. Bunda bosim 2632 KPa, temperaturasi 38 °C va sarfi 51700 kg/ soat bilan “DA – 1802” deetanizator qurilmasining 21 – tarelkasiga quyiladi. Deetanizator kolonnadan chiqayotgan mahsulotning 98.5% I etan, uning temperaturasi 6.7 °C, bosimi esa 26.14 KPa 10''P18200 – B2A – R trubasi orqali o'tib, EA-1810 muzlatgich (-2 °C) da sovitiladi va bu etan kondensatsiyaga uchrab, ma'lum bir qismi suyuqlanadi. Separator FA – 1804 ularni ikki qismga ajratadi. Separatoridan chiqayotgan suyuq etanni temperaturasi 5 °C, bosimi 2610 KPa, sarfi 28400 kg/ soat bilan BA – 1802 2S nasos orqali 6''P18024-B2A-B trubasiga beriladi. Bundan deetanizatsiya kolonnasining 1 – tarelkasiga quyiladi. FA-1804 bir soatda 2100 kg etan kondensatsiyaga uchraydi. Bug' holdagi etan bo'lsa, EA- 1820- uzatma orqali piroliz pechiga yuboriladi. Uzatma 6''P18207-B2A-R regulyator orqali nazorat qilinib turiladi. Bunda bosim 663 KPa deetanizatsiyadagi separatorning hajmi 100 m³, bug' etanning saqlanish muddati taxminan 2 soat bo'lishi mumkin.

Suyuq etanning FA- 1804 separatoridan chiqish quvur o'tkazgichida, nasosning so'rish qismida XV-18028 uzgich klapan o'rnatilgan. Klapani boshqarish (ochish, yopish) DES dan HS-18028 qayta ulagich yoki joyida PB-18028 tugmacha bilan amalga oshiriladi. ZSO- 18028 ulagichning “ochiq” holat signali I-1807 blakirovkani ishga tushiradi. Natijada GA- 1802 S “ho'llash” suyuqligini beruvchi nasosning ishdan chiqishining oldi olinib, u to'xtatiladi.

Nasosdan chiqqan suyuq etan DA- 1802 deetanizatorning yuqori qismiga “ho'llash” uchun beriladi. Deetanizatorning 1- tarelkasiga beriladigan “ho'llash” suyuqligining miqdori, FC-18013 asbobi yordamida, sarfning past “L” qiymatida signalizatsiya bilan, ushbu quvur o'tkazgichda o'rnatilgan FV-18013 “HO” klapani vositasida tartibga solinadi.

Suyuq etanning bir qismi etan xom ashyosini pechlarga yuborish kollektoridagi bosimga bog'liq ravishda EA- 1820 etan xom ashyosini bug'latgichning quvurlari hududiga yuboriladi.

EA-1820 bug'latgich, U-simon quvurlar bog'lamiga ega bo'lgan, g'ilof quvurli issiqlik aimashtirgich bo'lib, uning quvurlararo hududi bug' kondensati bilan to'ydirilgan. Bug'latgichning asosiy vazifasi quyidagicha:

- Etan xom ashyosini pechlarga yuborish kollektoridagi bosimni tartibga solish;
- Gazni ajratish qurilmasi avariya holatida to'xtatilganda, piroliz pechlarini etan xom ashyosi bilan ta'minlash.

Etanni bug'latish berilgan temperaturadagi bug' kondensati bilan issiqlik almashish hisobiga amalga oshiriladi. Bug' kondensati temperaturasi 95-105 °C darajada TC- 18073 asbobi yordamida, bug'latgichning korpusiga beriladigan past bosimdagi bug' oqimini tartibga solish yo'li bilan ushlab turiladi. Tartibga solish, past bosimdagi bug' berish quvur o'tkazgichga o'rnatilgan TV-18073 "H3" klapani bilan amalga oshiriladi.

Depropanizatsiya

Suyuq uglevodorodlar (C_3H_8 , C_4H_{10} , C_5 - yuqori fraksiyalar) ning ikki fazali qismi DA- 1802 deetanizatorning kubidan (etan xom ashyosini ajratib olish bloke) 113°C dan yuqori bo'lmagan temperaturada, ta'mirlash suyuqligi sifatida DA- 1803 depropanizator (propanni ajratib olish bloki) ga beriladi.

DA-1803 depropanizator 52 ta klapanli tarelkalardan iborat bo'lib, ularda xom ashyo tarkibida butan 0.33 % dan kam bo'lgan, apparatning yuqorisidan olinadigan propan va tarkibida propan 0.37 % dank am bo'lgan, kub mahsulotini (C_4H_{10} , C_5 - yuqori fraksiyalar) olish maqsadida fraksiyalarga ajratiladi.

Gaz fazasi ta'minlovchi suyuqlik beriladigan nuqtadan kolonnaning yuqori qismiga harakatlanadi, bunda pastga oqib tushayotgan suyuqlik bilan uzluksiz massa almashish jarayoni borishi hisobiga propan bilan to'yinadi.

Kolonnaning yuqori qismidagi ishchi bosim 1160-1370 KPa oralig'ida ushlab turiladi. Bosimni ko'rsatilgan oraliqda tartibga solish, kondensatorda kondensatlanayotgan propanning hajmini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. PC- 18040 asbobidan signal ikki tartibga solish klapaniga – kondensatorga sovutish suvini berish quvur o'tkazgichiga o'rnatilgan PV – 18040 A “HO” va “ho'llash” suyuqligi sig'imiga gaz fazasini berish quvur o'tkazgichiga o'rnatilgan PV – 18040 “H3” klapanlariga boradi. Kolonnadagi bosim belgilangan qiymatdan tushib ketganda PV – 18040 A “HO” klapan yopiladi. PV – 18040 “H3” klapani esa ochiladi. Shu tariqa kolonnadagi bosim ko'tarilishi va propanning kondensatlanishining pasayishi ta'minlanadi. Kolonnadagi bosim belgilangan qiymatdan ortib ketganda, klapanlarning harakat yo'nalishi qarama – qarshi tomonga o'zgaradi.

Kolonna bosimining ortib ketishi va ma'shalaga tashlanadigan propanning hajmini kamayib ketishidan himoya qilish uchun bir qator himoya choralari ko'zda tutilgan.

1270-1400 KPa oraliqda bosim belgilangan qiymatdan ortib ketganda, propan FA – 1805 “ho'llash” suyuqligi sig'iminin yuqori qismidan quruq mash'ala tashlamalarini yig'ish tizimiga tashlanadi. PV – 18040 “H3” klapaning ishi PC – 18039 asbobo yordamida bosimning yuqori “H” va “L” qiymatlarida signalizatsiya bilan boshqariladi.

Tizimdagi bosimning qiymati 1400 KPa ga yetganda , PS – 1802 S A/B/C manbada uzgichlar ishga tushadi. Manbada uxgichlardan birining ishlab ketishi I – 1804 blokirovkani ishga tushiradi.

Mazkur blokirovka ta'sirida quyidagi klapanlar yopiladi:

- Depropanizatorning EA – 1813 kub reboylariga past bosimdagi bug' berish quvur o'tkazgichidagi FV – 18018 “H3” klapani;
- Quruq mash'ala tashlamalarini yig'ish tizimiga propanni tashlash quvur o'tkazgichidagi PV – 18039 “H3” klapani.

Kolonnadagi bosim 1520 KPa dan ortib ketganda PSV – 1816 S saqlovchi klapanlar ishga tushadi. Propan saqlovchi klapanidan quruq mash’ala tashlamalarini yig’ish kollektoriga tashlanadi.

Debutanizatsiya jarayoni

Debutanizator DA – 1804 36 ta klapanli tarelkadan iborat bo’lib, fraksiyaga ajratuvchi kolonna bo’lib depropanizatoridan chiqayotgan kub qoldiqni C_4 va C_8 ni ikkiga ajratadi.

Kolonnaning yuqori qismidan asosan C_4 va 1.3 % gacha C_8 ajralib chiqadi. Buni nasos orqali sexga yuboriladi. Yuqori qismidagi 8”P18401–A–1D-H trubasiga o’rnatilgan nazoratchi 2 CPPK 6-90 KPa bosimni ta’minlaydi. Suyuq kub qoldiq tarkibida asosan C_5 tashkil qiladi. Uning tarkibida 0.98 % C_4 hosil bo’lgan suyuq kub qoldiq EA – 1810 da sovitilib, tovar mahsulot sexidagi rezervuarlatga joylanadi.

DA – 1803 ni kub qoldig’i suyuq sig’im nazoratchisi LC – 18062 dan o’tib, 6”P 18310-AID-H trubasi orqali debutanizatorni 18 – tarelkasiga quyiladi. Buning temperaturasi 81.6°C , bosimi 400 KPa yuqori qismidan chiqayotgan par EA – 1814 kondensatorga boradi. Bu kondensatsiyalanib, FA – 1806 da saqlanadi. Flegma bir soat saqlanib, 6 A-1804 nasos orqali temperaturasi $30-71^{\circ}\text{C}$, bosimi 390 KPa, sarfi 1270 km/soat DA-1804 kolonnaning 1 – tarelkasiga quyiladi. Yana bir soatdan so’ng C_4 mahsulot nazoratchisi LV-18010 dan o’tib, nasos orqali tovar mahsulot sexidagi rezervuarga jo’natiladi. Temperatura nazoratchisi TC-18040 kolonna DA-1804 ish 31 va 32 – tarelkalar joylashgan bo’lib, xuddi shu yerdan past bosim ish reboylar EA-1815 ham qo’yiladi.

Kondensatorda butanlar aylanma suv bilan issiqlik almashish hisobiga soviydi va kondensatlanadi. Suvning qaytuvchi oqimining temperaturasi $30-34^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Suvning qaytuvchi oqimining temperaturasini davriy ravishda nazorat qilish uchun, uning qaytish quvur o’tkazgichida TW-18061 moslamasi o’rnatilgan. Kondensatorning quvurlar hududi va bog’lovchi quvur o’tkazgichlarni bosimning ortib ketishidan himoya qilish uchun, aylanma suvning chiqish quvur


o'tkazgichida 700 KPa bosinda mo'ljallangan, PSV-1823 saqlovchi klapan o'rnatilgan. Suv saqlovchi klapandan xavfsiz joyga tashlanadi.

Kondensatordan chiqqan 29-36⁰C temperaturadagi butan FA-1806 "ho'llash" suyuqligi sig'imiga beriladi.

Kondensatordan kondensatlanmaydigan komponentlarni davriy ravishda chiqarib tashlash uchun uning yuqori qismiga gaz fazani mash'alaga tashlovchi quvur o'tkazgich ulangan.

Sig'imdagi suyuqlikning sathi LC-18030 asbobi yordamida suyuqlikning yuqori "H" va quyi "L" qiymatlarida signalizatsiya bilan omborga chiqariladigan butanning hajmini o'zgartirish yo'li bilan bir maromda ushlab turiladi. Sig'imdagi suyuqlik sathi joyida LC-18067 sath o'lchagich bilan o'lchanadi.

Qurilmaning texnologik sxema



ASOSIY QURILMANING TEXNOLOGIK HISOBI

Sho'rtan gaz kimyo majmuasida xom ashyo gazini demetanizatsiyalash bo'limini loyihalashda rektifikatsiya kolonnasini hisoblash. Yillik quvvati 5.75 mlrd m³ ga teng.

I. Bir kunda ishlab chiqariladigan mahsulot sarfi:

$$G_K = 5\,750\,000\,000 / 340 = 17\,000\,000 \text{ m}^3/\text{kun}$$

Bir soatda ishlab chiqariladigan mahsulot sarfi:

$$G_S = 17\,000\,000 / 24 = 708\,333 \text{ m}^3/\text{soat}$$

II. Moddiy balans

$$G_X = G_M + G_Q + G_{Yo'q}$$

Tabiiy gaz tarkibida 93% CH₄, qolgan 7% C₂H₆, C₃H₈, C₄H₁₀, C₅H₁₂ uglevodorodlari va yo'qotilish (1%) ni tashkil etadi desak, u holda ularning sarflari quyidagiga teng bo'ladi:

$$G_M = 708\,333 \cdot 0.93 = 658\,750 \text{ m}^3/\text{soat};$$

$$G_Q = 708\,333 \cdot 0.06 = 42\,500 \text{ m}^3/\text{soat};$$

$$G_{Yo'q} = 708\,333 \cdot 0.01 = 7083.33 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Kirish	Sarf (G), m ³ /soat	%	Chiqish	Sarf (G), m ³ /soat	%
Tabiiy gaz	708 333	100	Metan (CH ₄)	658 750	93
			C ₂ H ₆ , C ₃ H ₈ , C ₄ H ₁₀	42 500	6
			Yo'qotilish	708 333	1
Jami	708 333	100	Jami	708 333	100

III. Issiqlik balansi

Kolonnadagi isitgichning issiqlik yuklamasi bug'li sug'orilishning miqdori, uning pastki haydash qismidadir.

Yengil uglevodorodlarning entalpiyasini topamiz:

$$Q_n = 618 \cdot 50.3 = 31085 \text{ kJ/ kmol};$$

$$Q_m = 377 \cdot 55 = 20735 \text{ kJ/ kmol};$$

$$Q_R = 423 \cdot 61.6 = 26052 \text{ kJ/ kmol};$$

Issiqlik sarfi

$$Q_o = G_v(1+R)rd = 321624/ 3600 \cdot (1+3.16) \cdot 3.92 \cdot 10^{-3} = 145688 \text{ Vt};$$

Par isitgichdagi issiqlik sarfi:

$$Q = 1.05b_q \cdot C_p(I_R - I_{mr}) = 1.05 \cdot 17000/ 3600 \cdot 0.446 \cdot 4190 \cdot (91.5 - 18) = 679511.92 \text{ Vt};$$

Suvli sovutgichdagi issiqlik miqdori:

$$Q = G_v \cdot C_v(I_v \cdot I_{XOM}) = 321624/ 3600 \cdot 0.41 \cdot 60 \cdot 4190 = 9208631.2 \text{ Vt};$$

Kub qoldig'ini sovutish uchun sarflangan issiqlik miqdori:

$$Q = G_w \cdot C_w(L_w \cdot L_{KOH}) = 7050/ 3600 \cdot 0.85 \cdot 4190 \cdot (105 - 15) = 576428.77 \text{ Vt};$$

$P = 4 \text{ kJ/sm}^2$ bosimdagi issiqlik sarfi

Kubga :

$$G_m = Q_k/ r_k P_k = 24870538/ 2141 \cdot 103 \cdot 0.95 = 1.2 \text{ kg/s};$$

Chiqish isitgichidagi sarf:

$$G = 679511.92/ 2141 \cdot 103 \cdot 0.95 = 0.33 \text{ m/s};$$

Umuman:

$$1.2 + 0.33 = 1.52 \text{ kg/sm yoki } 5.688 \text{ g/s}.$$

Sovutishga sarf bo'lgan suv sarfi:

Deflegmatorda:

$$V_B = Q_D/ c_B (t_{KOH} - t_{KOH})P_b = 4235342/ 4190 \cdot 20 \cdot 1000 = 0.05 \text{ m}^3/\text{s}.$$

Distillyatni sovutishda:

$$V_Q = 268160 / 4190 \cdot 20 \cdot 1000 = 0.0032 \text{ m}^3/\text{s}.$$

Kub qoldig'ida:

$$V_Q = 569840 / 4190 \cdot 20 \cdot 1000 = 0.0068 \text{ m}^3/\text{s}.$$

IV. Bug'ning tezligi va kolonnaning diametrini aniqlaymiz.

Suyuqlikning o'rtacha konsentratsiyasi.

a)

Kolonnaning yuqori qismi:

$$X_{o'r}^I = (X_F + X_D) / 2 = (0.58 + 0.964) / 2 = 0.772$$

Kolonnaning pastki qismi:

$$X_{o'r}^I = (X_F + X_W) / 2 = (0.58 + 0.056) / 2 = 0.318$$

Bug'ning o'rtacha konsentratsiyasini quyidagi ishchi chiziq tenglamasi orqali aniqlaymiz:

a) Kolonnaning yuqori qismi:

$$Y_{o'r}^I = (0.76x + 0.23) = (0.76x + 0.23) = 0.76 \cdot 0.772 + 0.23 = 0.816$$

b) Kolonnaning pastki qismi:

$$Y_{o'r}^{II} = 1.175x - 0.012 = 1.175 \cdot 0.318 + 0.012 = 0.36$$

Bug'ning o'rtacha haroratini t-x diagramma orqali aniqlaymiz:

$$Y_{o'r}^I = 0.86 \text{ bo'lganda } t_{o'r}^I = 85^\circ\text{C}$$

$$Y_{o'r}^{II} = 0.36 \text{ bo'lganda } t_{o'r}^{II} = 103^\circ\text{C bo'ladi.}$$

Bug'ning o'rtacha mol massasi va zichligi:

$$a) M_{o'r}^I = 0.816 \cdot 30 + 0.416 \cdot 16 = 31.12$$

$$S_{o'r}^I = M_{o'r}^I T_o / 22.4 T_{o'r}^I = 31.12 \cdot 273 / 22.4 \cdot 356 = 1.06 \text{ kg/m}^3$$

$$b) M_{o'r}^{II} = 0.36 \cdot 30 + 0.84 \cdot 16 = 24.24 \text{ kg/mol}$$

$$S_{o'r}^{II} = M_{o'r}^{II} T_o / 22.4 T_{o'r}^{II} = 24.24 \cdot 273 / 22.4 \cdot 376 = 0.78 \text{ kg/m}^3$$

Kolonnadagi bug'ning o'rtacha zichligi

$$S_n = (S_{o'r}^I + S_{o'r}^{II}) / 2 = (1.06 + 0.78) / 2 = 0.92 \text{ kg/m}^3$$

Kolonnadagi o'rtacha zichlikni quyidagicha qabul qilamiz:

$$S_{suyuq} = (416 + 343) / 2 = 380 \text{ kg/m}^3$$

Elaksimontarelkalar uchun $c = 0.032$ ga teng.

Quyidagi tenglamaga asosan kolonnadagi bug'ning tezligini topamiz:

$$w = c \sqrt{S_{\text{suyuq}} / S_{\text{bug}}} = 0.032 \sqrt{380 / 0.92} = 0.65 \text{ m/s}$$

Bug'ning quyidagi kolonnadan o'rtacha haroratda o'tayotgan hajmiy sarfi:

$$t_{o,r} = -87.5 + (-99) / 2 = -94^{\circ}\text{C}$$

$$V = G_v \cdot (k+1) \cdot 22.4 \cdot T'_{o,r} \cdot S_o / M_o \cdot T_D \cdot 3600 \cdot P =$$

$$= 12619.8 \cdot (3.16+1) \cdot 22.4 \cdot 367 \cdot 1.053 / 30.6 \cdot 27 \cdot 3600 \cdot 1 = 3.53 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Bu yerda M_D – distillyatning molli massasi:

$$M_D = 0.954 \cdot 30 + 0.416 \cdot 16 = 35.3$$

Kolonnaning diametri

$$D = \sqrt{v / 0.785w} = \sqrt{3.53 / 0.785 \cdot 0.65} \approx 2.5 \text{ m} = 2500 \text{ mm.}$$

Kolonnadagi bug' tezligi

$$W = v / 0.785 \cdot D^2 = 3.63 / 0.785 \cdot 2.5^2 = 0.74 \text{ m/s.}$$

V. Kolonnaning balandligi va tarelkalar sonini aniqlaymiz:

Tarelkalarning foydali ish koeffitseynti $h=0.5:0.7$ oraliqda bo'ladi.

Kolonnamizdagi yuqori va pastki tarelkalar sonini aniqlaymiz.

Tarelkalar orasidagi masofa:

$$h_T = 0.5 : 0.95 \text{ m gacha (50 : 95 sm);}$$

$$c = 500 : 540$$

Unda bug'ning tezligini aniqlaymiz:

$$u = 0.305 \cdot 520 \cdot \sqrt{101 \cdot (137-101)} = 95.64 \text{ kg (m}^2\text{c);}$$

Parning chiziqli tezligi:

$$w = u / \rho_p \cdot 3600 = 95.64 \cdot 10^2 / 101 \cdot 3600 = 0.026 \text{ m/s.}$$

$$N_T = 12 - \text{yuqori}; \quad N_P = 19 - \text{pastki}$$

Ikkalasi uchun $\eta = 0.65$ ga teng.

Yuqori kolonna qismidagi tarelkalar soni quyidagicha topiladi:

$$N_T^n = N_T / \eta = 12 / 0.65 = 18 \text{ ta}$$

Kolonnaning pastki qismidagi tarelkalar soni esa:

$$N_p^n = N_p / \eta = 19 / 0.65 = 29 \text{ ta}$$

Jami tarelkalar soni:

$$N_T^u = N_T^n + N_p^n = 18 + 29 = 47 \text{ ta.}$$

Ishchi kolonnaning balandligini aniqlaymiz:

a) Bizda tepa va pastki tarelkalar ajrashgan joy: $h_T = 2.15 \text{ m};$

b) 48 ta tarelkalar orasidagi oraliq masofa: $h_n = 0.55 \text{ m};$

c) 2 ta tarelkada mahsulot ya'ni xom-ashyo quyiladigan oraliq:

$h_c = 0.95 \text{ m};$

d) Kub qismi: $h_k = 3 \text{ m};$

e) Kolonnaning tayanchi: $h_r = 6.4 \text{ m};$

f) Kolonnaning yuqori qismi: $h_m = 2 \text{ m};$

Bu holda balandligimiz quyidagicha bo'ladi:

